



O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM

Qurbonaliyeva Maxarram

JDFU talabasi

Annotatsiya: *O'zbekistonda oliy ta'limning o'rni, olib borilgan ishlar, kiritilgan yangiliklar. Hamda joriy etilayotgan qarorlar, ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish choralari. Ta'limda barham berilmagan muammoli vaziyatlarga yechimlar topish va ularni oldini olish haqida gapirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, texnologiya, dars, pedagog, talaba, ko'nikmalar, yetuk kadrlar, xorijiy ta'lim, korrupsiya, kelajak, tadbir, harakat, muassasa, tizim.*

Bugungi kunda oliy ta'limda tubdan burilish yuz berdi. Oliy ta'lim yo'nalishiga berilayotgan e'tibor, ta'lim sifatini yaxshilash va yangilashdan iborat. Oliy ta'limning sifatini yaxshilashda zamonaviy texnologiyalarga e'tibor berilmoqda, chunki XXI asr talabi ham shuni taqazo etadi. Oliy ta'limda texnologiyalar to'laligicha ta'minlanganligi, darslarni elektron qurilmalarda olib borilayotgani, darslarni sifatli va bilim darajasini yaxshilashga qaratilgan. Bunday o'zgarishlar va yangi texnologiyalar nafaqat oliy ta'lim, balki umumiy o'rta ta'limda ham yangilanish bo'lidi desak adashmaymiz. O'quv darsliklarning yangilangani, har chorakda darsliklarning yangilanib o'zgarib borayotgani va O'zbekistonga Finlandiya ta'limini tizimini kirib kelishi, barchasi o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshirish va fandagi yangilikka qaratildi. Xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganish va tatbiq qilish maqsadida, o'qituvchilarni xorijiy davlatlarga malakasini oshirish uchun yuborilmoqda. O'qituvchilarni ham shu bilan bir qatorda xorijda o'qishga yuborish uchun ajratilayotgan grandlar yutib olmoqda, ular xorijda tahsilni tugatib, O'zbekistonda ish faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda. Hatto O'zbekistonda xorijdan jalb qilingan malakali kadrlar ta'lim darajasini o'rganib unga baho berib, o'z fikrlari va yangiliklar kiritib ketishmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarining bosqichma-bosqich kredit modul tizimiga o'tmoqda. Endilikda ta'limda nazariy bilimga chek qo'yilib, amaliy ko'nikmalarni shakillantirish uchun shunday ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Dars jarayonlarining turli xil taqdimotlardan, videoroliklardan, qiziqarli metodlardan foydalanish, fanni chuqur o'rganishni va uni mustahkamlashni ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markalarini tashkil qilinmoqda. Shu qatorda besh tashabbusni yo'lga qo'yish, har bir tashabbusga birma-bir yondashish ishlari amalga



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

oshirilmoqda. Oliy ta'limdagi muammolarchi? Bu ham dolzarbligicha qolmasligi kerak. Chunki ta'limdagi bir muammo bilim darajasining pasayishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, "Har kim bilim olish huquqiga ega". [1] Lekin nega bilim olishga bo'lgan talab past? Oliy ta'limga topshirishga qiziqishi yo'q?

Prezidentimiz "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmoni imzolandi. Bunda Oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan:

a) oliy ta'lim bilan qamrov va ta'lim sifatini ta'minlash sohasida:

* oliy ta'lim bilan qamrov darajasi pastligicha qolmoqda;

* amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatdan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakillantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarda nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda;

* oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali yo'lga qo'yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakillantirishdagi ishtiroki yetarli emas;

* talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakillantirilmagan;

* ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi;

* professor-o'qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qoloqda;

* o'quv adabiyotlari yetishmovchiligi saqlanib qolib, mavjudlarining aksariyat qismi zamon talablari javob bermedi, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan;

* oliy ta'lim muassasalaridan fan olinpiadalarini otkazishning shaffof mexanizmlari joriy etilmagan, olimpiadalar g'oliblari bilan ishlash tizimli ravishda yo'lga qo'yilmagan;

* iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta'lim muassasalariga talablarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas;

* pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmagan, jumladan malaka oshirish muassasalarida o'quv mashg'ulotlari o'tkazish uchun yuqori malakali professor o'qituvchilar jalb qilinmaga, malaka oshirishga jalb etishda tinglovchilarning salohiyati inobatga olinmaydi;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

* oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud.[2]

Albatta muammoli vaziyatlar yechimsiz qolmaydi, buning uchun chor-tadbirlarni izlash va yo'lga qo'yish ishlari olib borilmoqda. Talabalar ta'lim olish jarayonida bir qator imkoniyatlar yaratish, ya'ni nomdor stipendiya nomzodligiga ega bo'lish ta'asis etildi. Buning uchun faqatgina talabalar harakatga tushishi, ya'ni darslarni mukammal egallashi, a'lo baholarga o'qishi, til bilish sertifikatini bo'lishi, maqola yozib nashir ettirishi va yana bir qancha harakatlar talab qilinadi. Bularning hammasi, albatta yetuk pedagoglar yordami va yo'l-yo'riqlari bilan amalga oshiriladi. Buni biz "Ustoz-shogird" an'anasiga tayangan holda amalga oshiramiz. Oliy ta'limda ham bu jarayonlar o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Bu ham bugunda o'z samarasini ko'rsatmoqda, ya'ni talabar an'analarni davom ettirib, maslahatlar va yo'l-yo'riqlarga tayanib, nomdor stipendiya sohiblariga aylanishmoqda.

Ta'lim muassasalarida samarali va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni tashkil etish esa bugungi rivojlanib turgan davrning eng muhim talabi bo'lib qolaveradi.[3]

Asosiy masala ta'lim sohasida korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratish lozim. Ta'limda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Korrupsiyaga qarshi kurashamiz" shiori ostida maruzalar olib borilishi, rasmlar va videoroliklar ostida tadbirlar o'tkazilishi, o'quvchilarning ongiga singdirishdan iborat. Talabalarda ko'proq "pul orqali hal qilaman" degan tushuncha paydo bo'lib qolgan, lekin hozirda bunda vaziyatlar batamom oldini olinmoqda. Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurash bo'limlari tashkil etilayotgani, darslarda, imtihon olish jarayonlari va uni baholashgacha bo'lgan paytida ham hech qanday noqonuniylikka yo'l qo'yilmayotgani, hammasi talab darajasida olib borilayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Talabalardan imtihon olish va baholash jarayonlari ham korrupsiya bo'limi nazoratchisi ostida taskillashtirilayapti. Umumiy qilib aytganda bugunda oliy ta'lim nazorat orqali bilimni mustahkamlash va uni yuksaltirish chorasini qo'llay boshladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz ham ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishga qo'ygan talablarini bajarish, shaffoflik, xolislik va obyektivlikni ta'minlash ishlari olib borilmoqda. Ta'lim tizimini sifat darajasini pasaytirishga sababchi bo'ladigan bir qator omillarni yo'ldan olib tashlashimiz kerak, berilgan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

imkoniyatlardan to'g'ri va holisona foydalanishimiz zarur, chunki O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ishlarda asosiy maqsad talabalarni bilimli qilish va ularni yetuk kadrlar bo'lib yetishiga qaratilgan. Oliy ta'limda yetishib chiqqan kadr O'zbekistonning kelajagiga o'z hissasini qo'shadi, shu bilan bir qatorda O'zbekistonning yuksalishi, ta'limda va boshqa sohalarda ham jahon miqiyosida ko'zga tashlanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 50-modda. <https://constitution.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni. 1-ilova. 2-bob. Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolari. <https://lex.uz>
3. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari. <https://cyberleninka.ru>